

RELEVANCE OF THE THEORY OF LANDSCAPE URBANISM IN MODERN URBAN PLANNING

Khoshimova Fazilat Jamshid daughter - Tashkent University of Architecture and Construction

Abstract: This article highlights the content of landscape urbanism, its place in modern urban planning, as well as its relevance and practical significance. Modern problems of the urban landscape and the principles of landscape urbanism in eliminating them are studied, their application in urban planning of Uzbekistan and measures in this direction are considered.

Key words: urbanism, landscape, balance, infrastructure, sustainability, concept

АКТУАЛЬНОСТЬ ТЕОРИИ ЛАНДШАФТНОГО УРБАНИЗМА В СОВРЕМЕННОМ ГОРОДСКОМ ПЛАНИРОВАНИИ

Хошимовой Фазилат Джамшид дочь - Ташкентский архитектурно-строительный университет

Аннотация: В данной статье освещается содержание ландшафтного урбанизма, его место в современном градостроительстве, а также актуальность и практическое значение. Изучаются современные проблемы городского ландшафта и принципы ландшафтного урбанизма в их устранении, рассматриваются их применение в градостроительстве Узбекистана и меры в этом направлении.

Ключевые слова: урбанизм, ландшафт, баланс, инфраструктура, устойчивость, концепция

ZAMONAVIY SHAHARSOZLIKDA LANDSHAFT URBANIZMI NAZARIYASINING DOLZARBLIGI

Xoshimova Fazilat Jamshid qizi-Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada landshaft urbanizmining mazmuni, uning bugungi zamonaviy shaharsozlikdagi o'rni hamda dolzarbligi, amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shahar landshaftining bugungi kundagi muammolari va ularni bartaraf qilishda landshaft urbanizmi tamoyillari o'rganilib, O'zbekiston shaharsozligidagi tatbiqlari va bu yo'ldagi chora-tadbirlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: urbanizm, landshaft, balans, infratuzilma, barqarorlik, konsepsiya

Kirish

Shaharsozlik aholi yashash joylari va aholini joylashtirish sistemasining urbanizatsiyalashgan muhiti shakllanishida kompleks va ko'p tomonlama ishlab chiquvchi jarayon hisoblanadi. Shahar esa kompleks yondashuvni talab etuvchi hayotiy organizmga o'xshaydi. XXI asrda urbanizatsiya jarayonlari keskin sur'atlarda rivojlanib, ko'plab shaharlar zichlashuvi, yashil hududlarning kamayishi va iqlim o'zgarishlari inson salomatligi hamda hayot sifati uchun xavf tug'dirmoqda. Shahar bosh rejasi ma'lum muddatga rejalashtirilganda kelgusidagi yuzaga chiquvchi hamda shahar muhitiga ta'sir qiluvchi omillar, turli nuanslar chuqur analiz qilinishi va hisobga olinishi zarur. Bunday omillarga iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik, migratsiya jarayonlari, texnika va innovatsiya rivojlanishining jadallashuvini keltirish mumkin. Bugungi kunda aholi sonining ortishi, ekologik vaziyatning globallasuvi va keskinlashishi, raqamli texnologiyaning kundan kunga rivojlanib borishi shaharlar holatiga o'z tas'irini o'tkazmay qolmayapti. Bunday dinamik o'zgarishlar va doimiy yangilanishlar natijasida shahar aholisi uchun qulay sharoitlarni yaratish dolzarb jarayon hisoblanadi. Bunda shaharning muhim va ajralmas qismi hisoblanuvchi yashil infratuzilmaning roli katta bo'lib, shahar rejalashtirishda jiddiy yondashuvlarni talab etmoqda va ularning eng dolzarblaridan biri **landshaft urbanizmi** hisoblanadi. Bu yondashuv shahar makonini tabiiy landshaftlar bilan uyg'unlashtirish orqali ekologik barqarorlik, sog'lom yashash muhiti va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Landshaft urbanizmining mohiyati. Landshaft urbanizmi – bu shaharni rejalashtirish va rivojlantirishda tabiiy ekotizimlarni markaziy element sifatida ko'radigan zamonaviy yondashuvdir. Bu konsepsiyada shahar inshootlari, infratuzilma va yashil landshaftlar o'zaro integratsiyalashadi. Ya'ni, shahar faqat binolardan emas, balki parklar, ko'llar, daryolar, yashil yo'laklar kabi tabiiy komponentlardan iborat murakkab va barqaror tizim sifatida qaraladi. Bu shaharni faqatgina binolar va infratuzilma bilan emas, balki tabiiy komponentlar bilan uyg'un holda rejalashtirish konsepsiyasini o'zida ifodalaydi. U shahar makonini tabiiy landshaftlar bilan birgalikda loyihalash, yashil hududlarni ko'paytirish, ekologik tizimlar bilan uyg'unlikda yashovchan muhit yaratish orqali ijtimoiy, ekologik va estetik ahamiyat kasb etadi.

Landshaft urbanizmining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Shahar muhitida ekologik barqarorlik. Shaharlar tabiatga zid ravishda emas, balki uning bir qismi sifatida barpo etilishi lozim. Landshaft urbanizmi orqali tabiiy suvlardan oqilona foydalanish, yomg'ir suvlarini boshqarish, bioxilma-xillikni saqlab

qolish va atmosferaning sifatini yaxshilash mumkin. Bu esa ekologik muvozanatni tiklashga xizmat qiladi.

Iqlim o'zgarishiga moslashuv. Global iqlim o'zgarishlari shaharlar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Landshaft urbanizmi bu xavflarga qarshi turishda samarali vosita bo'la oladi. Masalan, yashil maydonlar va suv havzalari shahar muhitida "issiqlik oroli" effektini kamaytiradi, shamollatish imkoniyatlarini oshiradi va tabiiy sovitish tizimlarini yaratadi.

Aholi salomatligi va ijtimoiy farovonlik. Yashil hududlar inson ruhiyati va sog'lig'i uchun muhim omildir. Tabiat bilan bevosita aloqa stressni kamaytiradi, jismoniy faollikni oshiradi va jamoaviy hayotni rag'batlantiradi. Landshaft urbanizmi asosida yaratilgan parklar, ochiq sport maydonchalari, dam olish zonalari aholining salomatligi va ijtimoiy faolligini oshiradi.

Ijtimoiy integratsiya va inklyuzivlik. Yashil jamoat makonlari barcha ijtimoiy guruhlar uchun ochiq bo'lib, shahar aholisi o'rtasida ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi. Bu esa jamiyatda birdamlikni mustahkamlaydi va ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi

Estetik va madaniy uyg'unlik. Shahar makonini estetik va madaniy qadriyatlarga mos ravishda bezash.

Urbanizatsiya sharoitida ko'plab shaharlar ekologik muammolar, transport bosimi, havo ifloslanishi, tabiiy resurslar tanqisligi kabi xavf-xatarlarga duch kelmoqda. Shu sababli, shaharsozlikda ekologik muvozanatni tiklash va inson uchun sog'lom yashash muhiti yaratish zarurati ortmoqda. Landshaft urbanizmi aynan shu maqsadlarga xizmat qilishi bilan dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston shaharsozligida landschaft urbanizmini keng joriy etish borasida ayrim muammolar mavjud:

- Yashil zonalarning qurilishlar natijasida qisqarib borishi;
- Suv resurslari cheklanganligi;
- Moliyaviy mablag' va texnik xizmat ko'rsatishdagi cheklovlar.

Landshaft urbanizmi quyidagi masalalarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi: suv ta'minoti tizimi, ekologik jihatlar va yashil koridorlarni rejalashtirish, biologik xilmaxlilik, yo'nalishni ko'rib chiqish va shahar ko'p maqsadli infratuzilma koridorlaridan foydalanishni joriy etish. Biroq, bunday ta'riflar landschaft urbanizmnida so'nggi o'n yil ichida paydo bo'lgan ba'zi masalalarni e'tiborsiz qoldirganligi sababli tegishli qator loyihalash institutlari hamda xorij tajribasini o'rgangan holda tubdan tahlil qilishni taqozo qiladi. Ko'klamzorlashtirilgan hududlarni funksional qismlarga bo'lishda uchta kategoriyaga bo'linadi:

- Umumiy foydalanish - shahar tashqarisidagi o'rmon-parklar, shahar va tuman parklari. Turar-joy tumanlari bog'lari, skverlar, bul'varlar; ko'chalar, maydonlar, qirg'oq bo'yi o'simliklari, xiyobonlar;

- Foydalanish cheklangan - kvartal ichidagi bog'lar, uylar hovlilaridagi ko'kalamzorlar, jamoat va sanoat binolari hududlaridagi o'simliklar;
- Maxsus vazifali – sanitar-himoya, suv muhofaza qismlari, botanika va zoologiya bog'lari, pitomliklar, qabristonlar.

Joylashish xarakteri bo'yicha shahar tashqarisidagi va shahar ichkarisidagi yashil massivlarga bo'linadi.

Shahar tashqarisidagi massivlar – o'z navbatida, umumiy foydalanishga mo'ljallangan va cheklangan foydalanishga mo'ljallangan shahar atrofi ko'kalamzorlariga ajratiladi.

Shahar ichkarisidagi massivlar – umumiy, cheklangan va maxsus foydalanish uchun mo'ljallangan ko'kalamzorlardan iborat. Umumiy yo'nalishdagi parklar - madaniyat va istirohat bog'lari, turar-joy tumanlari va kichik tumanlar bog'lari, skverlar, bul'varlar, xiyobonlar hamda ixtisoslashgan bog'lar - bolalar, sport, botanika bog'lari, zooparklar va h.k.lar shahar ko'kalamzorlari tizimini tashkil etadi.

Hududning yashil o'simliklari ehtiyojini hisoblashda bitta odamga to'g'ri keladigan ko'kalamzor hududlar me'yoridan foydalaniladi (qurilish me'yorlari va qoidalari.)

Landshaft dizayni bilan ishlashda quyidagi tavsiyalar mavjud:

- Odatda boy ekotizimga ega bo'lgan bog'lar va o'rmon bog'larining qirg'oqlarini saqlanishi va rivojlantirilishi kerak;
- Turli o'simliklar yordamida turli funktsional zonalarini ajratib olish va yil davomida ular uchun maxsus atmosfera yaratish mumkin;
- Landshaftdan shovqin va vizual to'siq sifatida foydalanish mumkin. Obodonlashtirishda zich ko'chatlar shovqin izolatsiyasi sifatida ham ishlatilishi mumkin;
- Yog'ingarchilik to'planadigan joylarda o'tkazuvchan yuzalar yomg'irli kanalizatsiya tizimini ishga tushiradi va zararli moddalarning suvga kirishini cheklaydi.

Landshaft dizaynini rejalashtirishda tabiiy qirg'oq chizig'i uchun o'simliklarni tanlashda alohida parvarish talab qilmaydigan mahalliy o'simlik turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston misolida landshaft urbanizmining tatbiqi

O'zbekiston shaharlarida ham landshaft urbanizmi yondashuvlari tobora keng qo'llanilmoqda. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch kabi shaharlarda yangi bog'lar, piyodalar uchun qulay hududlar, sun'iy suv omborlari, ekologik transport yo'llari kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

“Yashil Makon” dasturi. Butun dunyo miqyosidagi jiddiy ekologik vaziyatning jadallashuvi O'zbekiston hududiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Shu

o'rinda so'nggi yillarda O'zbekistonda iqlimning o'zgarishi, yillik o'rtacha temperaturaning ko'tarilishi, mavsumiy qurg'oqchilik kuchayishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish, shaharlarni ekologik holatini yaxshilash urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirish hamda ushbu sohada zarur chora tadbirlar dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish orqali amalga oshiriladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasi", 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi dasturlarida atrof muhit ob'ektlarini (havo, suv, er, tuproq, er qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) inson ta'siri hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko'lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Landshaft urbanizmi — bu faqatgina dizayn g'oyasi emas, balki ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan barqaror shaharlarni shakllantirishga qaratilgan strategik yondashuvdir. Bugungi kunda u shaharsozlikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, inson salomatligini muhofaza qilish va barqaror urban rivojlanishni yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynamoqda. Kelajak shaharlarini qurishda landschaft urbanizmi tamoyillaridan keng foydalanish zarur bo'lib, bu yondashuv zamonaviy shaharsozlikning ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mukhamedjanov, A., Isamukhamedova, D., Tang, B.-S. *Green Spaces for Summer Cooling: Case Study of Tashkent, Uzbekistan. International Review for Spatial Planning and Sustainable Development*, 12(2), 2024.
2. Höftberger, Katharina. *Conservation and development: implementation of the historic urban landscape approach in Khiva, Uzbekistan. International Journal of Heritage Studies*, 29(4), 2023.
3. Isamuxamedova D. U. Adilova L.A. *Shaharsozlik asoslari va landschaft arxitekturasini: 1 qism, darslik / O'zR oily va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, -Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi*, 2009
4. Landshaft arxitekturasini/A. Uralov [va boshq.]. *O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi — T.: Cho'lpon nomidagi N M IU*, 2014.

5. Waldheim, Charles. *Landscape as Urbanism: A General Theory*. Princeton University Press, 2016.